

# **SHARQ MASH'ALI**



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

1  
2024

*Ilmiy-uslubiy,  
ma'naviy-ma'rifly jurnal.  
Ta'sisch'i:  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif fan va innovatsiyalar vazirligi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
1992-yildan chiga boshlagan  
Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Toshkent shahar matbuot va axborot  
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan  
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)*

Bosh muharrir:

**G. RIXSIYEVA** (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

**D. SAYFULLAYEV** (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinnbosari)

**X. ALIMOVA** (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

**A. MANNONOV** (prof., f.f.d.)

**Q. SODIQOV** (prof., f.f.d.)

**R. XODJAYEVA** (prof., f.f.d.)

**SH. SHOMUSAROV** (prof., f.f.d.)

**Q. OMONOV** (prof., f.f.d.)

**U. MUHIBOVA** (prof., f.f.d.)

**D. MUHIDDINOVA** (f.f.d.)

**X. HAMIDOV** (f.f. bo'yicha PhD)

**B. ABDUHALIMOV** (prof., t.f.d.)

**A. XODJAYEV** (prof., t.f.d.)

**M. IS'HOQOV** (prof., t.f.d.)

**X. FAYZIYEV** (dos., t.f.n.)

**D. XODJIMURATOVA** (t.f. bo'yicha PhD)

**SH. YOVQOCHEV** (prof., s.f.d.)

**N. ABDULLAYEV** (dos., s.f.d.)

**A. VAHOBOV** (prof., i.f.d.)

**R. ABDULLAYEV** (prof., i.f.d.)

**L. MAVLANOV** (prof., i.f.d.)

**R. BAHODIROV** (prof., fal.f.d.)

**E. IZZETOVA** (prof., fal.f.d.)

**A. SHONAZAROVA** (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)

**G. GLIZON** (AQSHning New Mexico univ. prof.)

**ONO MASAKI** (Yaponianing Tsukuba univ. prof.)

**LI DJI IN** (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)

**V. MESAMED** (Isroilning Quddus univ. prof.)

**A. GURER** (Turkiyaning Anqara univ. prof.)

**A. VOROBIEV** (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)

**G. AVDA** (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)

**A. TOHIR** (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)

**S. KURAYM** (f.f. bo'yicha PhD)

**H. BAYDEMIR** (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

# SHARQ MASH'ALI

**ISSN 2010-9709**

## MUNDARIJA № 1, 2024-yil

### *Adabiyotshunoslik*

<b>Imomnazarov M.</b> Dahoning tug'ilishi .....	4
<b>Raxmonov A.</b> Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarida xalq farovonligi g'oyasiining aks etishi. 16	
<b>Dr. Sayed Mohamed Ahmed Korayem</b>	
Ali-Shir Nava'i and his literary heritage: (A study on his influence and contribution to world civilization).....	28
<b>Xubbaliyeva M.</b> Xitoylik sayyoh Shyuan Zangning "Buyuk Tan sayohatnomasi" asari va "Sin tan shu" manbasining o'ziga xos jihatlari .....	40
<b>Saydganiyeva G.</b> Navoiyxonlik va Navoiy ijodiy an'analarining Qo'qon adabiy muhitি rivojidagi o'rni. ....	47
<b>Abdullayeva D.</b> G'ada as-samman va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalardida portret va nutqiy xarakteristika.....	62
<b>Ahmedov A.</b> To'tinoma asarining Buxorodagi nusxalari va ularning kodikologik qiyoysiylahlili ....	73
<b>Yuldasheva X.</b> Roja al Soniy ijodida ayollar mavzusi .....	84

### *Tilshunoslik*

<b>Hakimova B.</b> Tilshunoslikda "Konsept" birligi va uning o'rganilishi .....	94
<b>Kadirova X.</b> "O'tkan kunlar" hamda "Anna Karenina" asarlarining iks-femik birliklar tarjimasi muammolari .....	104
<b>Kurbanova G.</b> Amin Maalufning "Samarqand yoxud zulmatda yo'qolgan ziyyoni izlab..." asarida ifodalangan sharq ayollari obrazining tarjimada qayta yaratilishi.....	115

 **SHARQ MASJAH'ALI**

<p>Nashrga tayyorlovchilar:  <b>J. ISMOILOV, A. ZIYODOV</b>  <b>L. HAMDAMZODA,</b>  <b>H. SULAYMONOVA</b></p> <p>Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy          Attestatsiya Komissiyasi tomonidan          filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy          maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar          ro'yxatiga kiritilgan.</p> <p>Jurnal original-maket asosida bosildi.          Sharq mash'ali, 2023 yil 1-son.          e-mail: nashriyot@tsuos.uz          web-site: www.tsuos.uz          Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan          farqlanishi mumkin.</p>	<p><b>Tarix</b></p>	<p><b>Polvonov J.</b> Mustamlaka davrida xiva xonligida xonga murojaatning cheklanishi ..... 127  <b>Asloniy M. Reza</b> Kamoliddin Behzodning Temuriylar davri miniatyurasi va Eron rassomchiligi rivojidagi hissasi ..... 137  <b>Xayrullayeva I.</b> Hindiston mamlakati xotin-qizlar ta'limi evolutsiyasi ..... 146  <b>Abdullahayev J.</b> Turkiy davlatlar tashkilotining paydo bo'lishi va istiqbollari ..... 156  <b>Abirov V.</b> O'zbek xalqi etnik tarixiga oid tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari va ilmiy natijalari ..... 165</p>
	<p><b>Tashqi siyosat</b></p>	<p><b>Sadibaqosev H.</b> Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida xitoyning o'rni ..... 174  <b>Soipov B.</b> Birlashgan arab amirliklarining ichki va tashqi siyosatida din omili ..... 184  <b>Muydinov D.</b> Yevropga migratsiya va qochoqlar oqimi: mintaqqa davlatlarining migratsiya siyosati ..... 196  <b>Mamadjonov A.</b> Turkiya tashqi siyosatining konseptual huquqiy asoslari va zamonaviy jihatlari ..... 205  <b>Mirg'iyosov M.</b> Xitoy xalq respublikasi transport sohasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tahlili ..... 215  <b>Джумаева Г.</b> Эволюция санкций и санкционной политики: краткий генезис. 224  <b>Nurimbetov R</b> Shanxay hamkorlik tashkilotining evolyutsiyasi: asosiy bosqichlari va institutsional rivojlanish xususiyatlari ..... 235  <b>Eshankulov A.</b> O'zbekiston respublikasi oly majlisi parlamentlararo hamkorligining o'ziga xosligi ..... 246  <b>Bo'ronov S., Nazarova F.</b> Hozirgi davrda Turkiya tashqi siyosati: mintaqaviy davlatdan global davlat sari ..... 257</p>
	<p><b>Ilmiy axborot</b></p>	<p><b>To'xliyev B.</b> Ajdodlardan kelgan o'gitlar ..... 264  <b>Mahmud H.</b> Maxdum Vosiliy fondi va undagi "Xamsa"ning qo'lyozma nusxasi ..... 275</p>



## XITOYLIK SAYYOH SHYUAN ZANGNING “BUYUK TAN SAYOHATNOMASI” ASARI VA “SIN TAN SHU” MANBASINING O’ZIGA XOS JIHATLARI

XUBBALIYEVA MAXPURAT

Tayanch doktorant, TDSHU

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 627-yilda Hindistonga buddizm dinini o’rganish maqsadida safarga otlangan xitoylik sayyoh Shyuan Zangning Markaziy Osiyoga tashrifи chog ‘ida yurtimiz tarixiga oid ma’lumotlar qayd etilgan “Buyuk Tan sayohatnomasi” asari haqida so’z boradi. Sayyoh Markaziy Osiyo orqali Hindistonga boradi va safar davomida o’zi guvoh bo’lgan voqeа hodisalarни, bir nechta davlatlarning geografik joylashuvini, mintaqamizning o’rta asrlardagi aholisi, etnografiyasi, kundalik turmush tarzini yorituvchi qimmatli ma’lumotlarni sayohatnomasiga yozib boradi. Markaziy Osiyodagi bir qancha davlatlar va ularga olib boruvchi yo’llarning masofasi sayohatnomada aniq ko’rsatiladi hamda Markaziy Osiyo tarixiga oid toponomik ma’lumotlar ketma-ketlikda beriladi.

Xitoylik sayyoh Shyuan Zang Sharqiy Turkistonning g’arbiy hududlaridan yo’lga chiqib, hozirgi Qozog’iston, Qirg’iziston Respublikalariga qarashli hududlarga va yurtimizga tashrif buyurishi hamda bu vaqtagi taassurotlari aks ettiriladi. Sayohatnomada berilgan joy nomlarining hozirgi kundagi joylashuvi va nomlari aniqlandi. Shu bilan birga, maqolada xitoylik tarixchi Ouyan Syuning “Sin Tan shu” asari va Shyuan Zangning “Buyuk Tan sayohatnomasi” asaridagi o’xshash va bir birini inkor etuvchi ma’lumotlar o’rganilgan. Bu borada olib borilgan o’zbek, rus va xitoylik tarixchilarining ilmiy tadqiqot ishlaridan xulosalar keltirilgan. Maqolada ikki muhim manbadagi ma’lumotlar berilgan va tadqiq qilingan.

**Kalit so’zlar.** Shyuan Zang, “Buyuk Tan sayohatnomasi”, Sharqiy Turkiston, “Sin Tan Shu”, G’arbiy mamlakatlar, buddizm, Suye, Mingbulloq, Issiqko’l, Muzart, Shi gou, Pomir tog’lari, Hindiston;

**Аннотация.** В данной статье говорится о произведении «Путешествие в Западный край во времена Великой Тан», в котором зафиксированы сведения об истории нашей страны во время посещения Средней Азии китайского путешественника Сюань Цзана, отправившегося в Индию для изучения буддизма в 627 году. Путешественник едет в Индию через Среднюю Азию и записывает в свою путевую книгу события, свидетелем которых он стал во время путешествия, географическое положение ряда стран, население нашего региона, этнографию и повседневную жизнь в средних веках. В путеводителе четко указаны расстояния нескольких стран Средней Азии и дороги, ведущие к ним, а также последовательно даны топонимические сведения по истории Средней Азии. Китайский путешественник Сюань Цзан, выехав из западных районов Восточного Туркестана, побывал на территориях, современного Казахстана и Киргизстана, и посетил нашу страну, а также описал свои впечатления за это время. Определены современное местоположение и названия топонимов, приведенных в путеводителе. В то же время в статье рассматриваются сходные и противоречивые сведения в «Синь Тан Шу» китайского историка Оуян Сюя и «Путешествие в Западный край во времена Великой Тан» Сюань Цзана. По этому поводу представлены выводы из научных исследований узбекских, российских и китайских историков. В статье представлена и исследована информация из двух важных источников.

**Ключевые слова.** Сюань Занг, «Путешествие Великого Тана», Восточный Туркестан, «Син Тан Шу», страны Запада, буддизм, Суе, Мингбулук, Иссык-Куль, Музарт, Ши гоу, горы Памира, Индия;

**Annotation:** This article is dedicated to the book “The Great Tan’s Travelogue” which recounts the historical journey of the Chinese traveler Xuan Zang to Central Asia in 627 AD, as he embarked on a travelling to India to study Buddhism. Throughout his travels, Xuan Zang meticulously documented the events he witnessed, the geographical locations of various countries, as well as the ethnography

*and daily life of the medieval inhabitants of the region. The travelogue provides detailed accounts of the distances and routes to several Central Asian countries, offering valuable topographical insights into the history of the region. Xuan Zang's extensive journey encompassed territories that now belong to the Republics of Kazakhstan, Kyrgyzstan, and Uzbekistan, offering unique perspectives and impressions of the places he visited. Furthermore, this article delves into comparative analyses of the accounts provided in Xuan Zang's "The Great Tan's Travelogue" and the Chinese historian Ouyang Xiu's "Xin Tan Shu," presenting findings from scholarly works by Uzbek, Russian, and Chinese historians. This study sheds light on the rich historical and geographical information preserved in these pivotal sources.*

**Keywords:** Xuan Zang, *The Great Tan's Travelogue*, Central Asia, *Xin Tan Shu*, Buddhism, Suye, Mingbulak, Issyk-Kul, Muzart, Shi Gou, Pamir Mountains, India.

**Kirish.** Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi aloqalar qadimgi davrlarga borib taqaladi. Xitoya Tan sulolasining hokimiyatga kelishi o'rtadagi munosaabatlarni jadal rivojlanishiga olib keldi. Tan sulolasi Markaziy Osiyo va Xitoy aloqalari tarixidagi eng muhim va taniqli sulolalaridan biri hisoblanadi. Savdo va elchilik munosabatlarida sezilarli darajada mustahkamlandi. O'z navbatida bu ijtimoiy-madaniy almashinuvlarni kuchaytirdi. Xitoy manbalarida ushbu jarayonlarning aks ettirilishi fikrimizning yoqin isbotidir. Tan davridagi aksariyat manbalarda nafaqat Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy aloqalar balki, bu ikki davlatning geografik joylashuv o'rni, yashash shart sharoitlari haqida so'z boradi. Biroq Xitoy tilidagi manbalarning aksariyatida karvon yo'llari bo'yab joylashish ketma-ketligi hech qanday tarzda tasvirlanmagan va shuning uchun ularning nisbiyigini aniqlash ko'pincha qiyin va hatto imkonsizdir. Bu borada Shyuan Zangning "Buyuk Tan sayohatnomasi" (xitoy tilida 大唐西域记 "Da Tang Xi Yu Ji") asari qimmatlidir.

**Maqsad va vazifalar.** Tadqiqotning maqsadi sifatida Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo tarixiga oid berilgan ma'lumotlarni tadqiq etish belgilangan. Qadimgi Xitoy manbalarida yurtimizga kelgan bir nechta xitoylik sayyoh va budda rohiblarining xotiralarida madaniy aloqalar, savdo-sotiq munosabatlari, qadimiy shaharlar, ijtimoiy hayot to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan. Tadqiqot davomida sayohatnomalarda Markaziy Osyoning ijtimoiy – siyosiy va madaniy hayotiga oid ma'lumotlarni chuqur tahlil etish kabi vazifalar belgilangan.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotni amalga oshirishda uslubiy jihatdan, qiyosiy tahlil xususiyatiga ega mantiqiy-tarixiy, tizimlashtirish usullariga tayanildi. Tarixiy-qiyosiy tahlillardan so'ng ular asosida umumlashtirilgan xulolasalarga kelingan.

**Natijalar va mulohazalar.** Xitoylik sayyoh Shyuan Zang 629-645 yillarda Hindistonga sayohat qiladi. U Sharqiy Turkiston va Jung'oriyaning shimoli-g'arbiy yerlaridan, Markaziy Osyonan (shimoli-sharqdan uning markazi orqali janubgacha Afg'onistonning shimoliy chegaralarigacha) o'tib, u yerdan Hindistonga borishi kerak bo'ladi. Shyuan Zang to'liq ma'noda sayohatchi emas, balki ziyoratchi edi. Lekin u buyuk geograf ham edi. Hindistonga ketayotib, u o'zining eslatmalarida o'nlab davlatlarni tasvirlab beradi. Shu bilan birga, ularning har biri u yoki bu karvon yo'liga bog'langan guruhlarga bo'lib tasvirlab berdi. U har bir berilgan guruhning holatini ma'lum yo'l bo'yab birin-ketin joylashish ketma-ketligida aks ettiradi. Va u o'z-o'zidan fizik-geografik obyektlarga qiziqmasa ham, har bir yo'lda ularning eng muhimlarini eslatib o'tdi. Tan sulolasi davrida Shyuan Zang<sup>1</sup> o'zining 629-yilda

---

<sup>1</sup> Xalq orasida Tang Sing ya'ni Tan sulolasi davridagi rohib deb ham ataladi. Rus olimlari tomonidan "Сюань-цзан" shaklida ham uchraydi. Xitoyshunos olim A.Xodjayevning ilmiy asarlarida esa "Shyuan Zang" tarzida berilib muallif

boshlangan Hindistonga sayohati davomida G‘arbiy mamlakatlar, Markaziy Osiyo haqida bir necha ma’lumotlar yozib qoldiradi.

Sayyoh Shyuan Zang aynan buddizm dinini chuqur o‘rganish maqsadida Hindistonga yo‘l oladi. Oqsudan Toshkentgacha bo‘lgan yo‘nalish ya’ni sharqdan g‘arbga qarab 600 li (345,6 km.), janubdan shimolga qarab 300 (172,8 km.) li, bosh shahar aylanasiga ko‘ra 5-6 (3,4 km.) li masofaga harakatlangan Shyuan Zang yeri, ob-havosi, mahalliy xalqning fe’l-atvori, urf – odatlari, tillari Kucha (Kuche yoki Kuchar) <sup>1</sup> davlatnikiga o‘xshashligi haqida yozib qoldiradi. Bu yerlarda ajoyib navli paxta va jun mahsulotlari ishlab chiqarilganligi va ular qo‘shti davlatlarda yuqori baholanganligi qayd etadi. Shimoldan g‘arbga qarab, 300 (172,8 km.) li yurganda toshli sahroni kesib o‘tishadi. Muzli tog‘lar Sunlindan (Pomir tog‘i) dan shimolga qarab oqadi deb o‘z xotiralarida yozib qoldiradi. Tog‘lar bo‘ylab 40 (23 km.) li dan ko‘proq yurgandan so‘ng katta tiniq ko‘lga kelishdi. Shyuan Zang ko‘lni havorang deb ta’riflaydi va Jexay- Issiqko‘l yoki Syanxay – tuzli ko‘l deb ataydi. Uning aylanasasi 1000 (576 km.) lidan oshiqroq, u sharqdan g‘arbga qarab kengroq, janubdan shimolga qarab torroq joylashgan bo‘lib, hamma tarafidan tog‘ bilan o‘ralgan. Suvning rangi havorang ko‘k, tami achchiq – sho‘r, katta to‘lqinlar hisobsiz bo‘lib, qirg‘oqlarga urilib turadi. Bu yerda ko‘p baliqlar oziqlanadi. Biroq juda qo‘rquinchli ko‘ringani bois, baliqlar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan bu joyda hech kim baliq ovlashni xohlamasdi. Shimoldan g‘arbga qarab 500 (288 km.) li yurganlaridan so‘ng Suye daryosi bo‘yidagi shaharga kirib kelishadi. Bu shahar aylanasiga 5-6 li ni tashkil etadi. Shu o‘rinda xitoysunos olim A.Xodjayevning fikrlarini e’tiborga olsak, olim Suye shahrini tarixiy Tarozga va hozirgi To‘qmoq shahrining o‘rnida joylashganligini ta’kidlaydi<sup>2</sup>.

Suye shahridan Keshaniya podsholigigacha (Kesh, Shahrisabz)<sup>3</sup> bo‘lgan shahar Suli<sup>4</sup> deb nomlangan. Uning aholisi ham shu nom bilan atalgan. Aholining kiyimlari asosan ichki qismi yupqa jun matolardan, tashqi qismi esa qalin po‘stindan iborat bo‘lgan. Pastki qism kiyimlar tor va kalta ko‘rinishda bo‘lgan. Sochlarini qirib olib, peshonalarini ipak bog‘ichlar bilan o‘rab olishgan. Suye shahridan 400 (230,4) li g‘arbga yurganda Syansyuanga yetib kelishdi. Maydoni 200 (115,2 km<sup>2</sup>) li ni tashkil qiladi. Janub tomondan qorli tog‘lar qolgan uch tomoni cho‘ldan iborat. Yerlari nam, o‘rmonlari qalin, bahorda xilma-xil gullar ochiladi. Bu yerda ko‘plab ko‘llar mavjudligi uchun “Ming kalit”, “Mingbulloq”<sup>5</sup> (Qozog‘iston Respublikasi Turkiston viloyatidagi qishloq) nomini olgan. Tuszyue<sup>6</sup> xoqoni har yili jaziramadan saqlanish uchun keladi.

ham shu tarzda yozilishini qo‘llab quvvatlaydi. Chunki xitoy tilida bu nom “玄奘”- Xuánzàng shaklida keladi. Shu sababli o‘zbek tilida “Shyuan Zang” deb ifodalanishi to‘g‘ri hisoblanadi.

<sup>1</sup> Taklamakon sahrosining shimoliy chekkasida, Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy yo‘li orqali Qorashar va g‘arbdan Aksu oralig‘ida joylashgan qadimgi buddizm davlati. Hozirgi Xitoyning Shinjon-Uyg‘ur avtonom viloyatining Aksu tumanidagi voha.

<sup>2</sup> А.Ходжаев. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Т., 2007. – Б.163

<sup>3</sup> Б.Г.Гафуров. Таджики: древнейшая, древняя и средневековая история. 2-е изд. – М., 1972. – С.121

<sup>4</sup> Со‘г‘diylarning qadimiym nomlanishi.

<sup>5</sup> Байпаков, К.М. Западно-туркский и Тюргешский каганати: тюрки и согдийці, степь и город / К.М.Байпаков // Известия НАН РК. Серия общественных наук. – 2009. – С.105

<sup>6</sup> Turk atamasi. Tujuue -qadimgi talaffuzda tiek, tiekle, tienglieng, tietle, tu-kvet deb o‘qilgan. А.Ходжаев. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Т., 2007. – Б.170

*Shyuan Zangning sayohat marshruti<sup>1</sup>*



Ushbu hududda kiyiklar ko‘p bo‘lib, odamlarga juda o‘rgangan. Ular odamlardan qo‘rqmaydi va qochmaydi. Biroq ularni ovlashga ruxsat berilmagan. Kim o‘ldirsa jazolangan. Shuning uchun kiyiklar podasi himoya qilingan. Syansyuandan g‘arbgaga qarab 140-150 li yurilsa Da-lo-si shahriga kelishdi. Shahar aylanasi 8-9 li. U yerda savdogarlar va so‘g‘dlar aralash istiqomat qilishadi. Yeri va ob-havosi xuddi Suye shahri kabi. Taxminan bu shahardan 10 li janubga yurilsa, shaharcha bor. Bu odamlar o‘nta xonlikdan iborat. Ular hech qachon asir tushishmagan. Ularning tili, urf-odatlari, qonunlari xitoyliklarnikiga o‘xshagan. Janubiy g‘arbgaga qarab 200 (115,2 km.) li yurilsa, Oq daryo (xitoycha Bay-shuy) dagi shaharga keladi. Rus tarixchilaridan N.V.Aleksandrova rohibni bu joy borasida shahar bo‘yidagi daryoni nazarda tutganligini ta’kidlaydi. Hamda Oq daryoni Aris<sup>2</sup> daryosining irmog‘i deb hisoblaydi.

Da-lo-siga nisbatan yer va ob-havosi ancha yaxshi deya ta’riflanadi. Shu yerdan janubi g‘arbgaga qarab 200 (115,2 km.) li yurib, Gun-yuy shahriga keladi. Gun-yuy shahrini rus tarixchisi N.V.Aleksandrova Orxun bitiklaridagi Kangyuy<sup>3</sup> ga mos kelishi mumkin degan fikrni ta’kidlaydi.

Ouyan Syu “Sin Tan Shu” asari uchun G‘arbiy mamlakatlar haqidagi asarini yozish jarayonida, elchilardan olingan ma‘lumotlarga qo‘srimcha ravishda, Shyuan Zangning eslatmalaridan aniq foydalangan. Shyuan Zang ta’riflarining ketma-ketligini va sulolaviy tarix ma‘lumotlariga

<sup>1</sup> Xaritada jigarrangda berilgan marshrut Hindistonga borish yo‘nalishi, siyohrangdagisi esa Xitoyga qaytish marshruti ko‘rsatilgan. Manba. Роман “Путешествие на запад” и подлинная история Танского монаха // <https://anashina.com/roman-puteshestvie-na-zapad-i-podlinnaya-istoriya-tanskogo-monaxa/>

<sup>2</sup> Qozog‘iston janubidagi daryo

<sup>3</sup> Talas daryosi va Chu daryosining quiy oqimi o‘rtasidagi hududni egallaydi, janubda Shosh viloyatiga va shimolda Sirdaryoning quiyi qismigacha bo‘lgan hudud

## SHARQ MASJAH'ALI

tayangan holda, VI asr oxiri VII asr boshlarida Markaziy Osiyoning g'arbiy qismidagi davlatlarning nisbiy holatini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sulola tarixidan farqli o'laroq, Shyuan Zang davlatlarning mahalliy nomlarini beradi. Sayohatnomani tarjima qilish jarayonida olimlar bir qator hollarda ularni eski xitoy tilidagi yoki Tan davridagi nomlari bilan aniqlashga harakat qilganlar.

Rus tarixchilaridan yana biri Л.А.Боровкова “Запад Центральной Азии во II в. до н.э. VII в.н.э.” asarida Shyuan Zangning sayohat yo‘nalishini Tan sulolasini tarixini yorituvchi ikki muhim manba ya’ni “Tan sulolasining yangi tarixi” va “Tan sulolasining eski tarixi” manbalari asosida taqqoslaysdi. Manzilgohlarning joylashishi va nomlarini ham tadqiq qiladi. Sujidan (Kuchi) g‘arbda 600 li (316 km) “Buyuk Tan (davridagi) G‘arbiy mamlakatlar xotiralari” va “Tan sulolasini yangi tarixi” da sobiq Gumo deb aniqlangan Balujia davlati ko‘rsatilgan. “Xan shu” (漢書- Xan sulolasini tarixi<sup>1</sup>) ga ko‘ra, Guitsidan Gumogacha 670 li (268 km) bor edi. Xan va Vey davrlaridagi masofa ko‘rsatkichi bo‘lgan “li” o‘lchamlari o‘rtasidagi uzunlikdagi farqni unutmaylik. Suy va Tan davrida, Yan Kuanning fikriga ko‘ra, “li” ning uzunligi Kechki Vey davridagi o‘ichov bilan teng bo‘lib qolgan. Sayohatnomaga ko‘ra, Balujia qadimgi Gumoning g‘arbiy qismida joylashgan. Shyuan Zangning Balujia poytaxtiga kirishi dargumon, chunki bu uning yo‘lini uzaytirib yuborardi. Va sharqiy yerlaridan u, ehtimol, hozirgi Yakkariq hududidan, shimoliy-g‘arbiy sayohatini davom ettirdi, bu esa uni Issiqko‘lga olib keldi.

“Xan shu” ga ko‘ra, Vensudan shimolga, poytaxt Usungacha boradigan yo‘l Sharqiy Turkistondan Tekes va Ili vodiylariga eng qisqa yo‘l sifatida faqat Muzart dovoni orqali o‘tshi mumkin bo‘lgan yo‘l ma’lum edi. Shyuan Zang yozishicha: “Shimoli-g‘arbda, 300 li/157 km dan keyin biz Shiszi daryosidan o‘tib, Linshanga (Muz tog‘i) yaqinlashdik. Muz tog‘i haqida sayohatnomaning 12-bobida uchraydi. Bu Sunlin (Pomir) tog‘larining shimoliy chegarasi”<sup>2</sup>. Avvalo, VII asr boshidagi xitoyliklarning g‘oyalari ko‘ra, Sunlin aslida shimolda Xon Tengri tog‘ tutashgan joyidan boshlanganini ta’kidlashimiz mumkin. Xaritaga ko‘ra, Yakaariqdan Muzart dovonigacha bo‘lgan masofa taxminan 120 km bo‘lib, balandligi 3564 m bo‘lgan dovon orqali VII asr boshidagi 157 km yo‘l masofasiga to‘liq mos keladi. Keyingi yo‘lni tasvirlab, Shyuan Zang shunday deydi: “400 li tog‘larni bosib o‘tib, biz aylanasi 1000 li, sharqdan g‘arba cho‘zilgan va janubdan shimolga toraygan Dasingchiga (Chjexay yoki Syanxay deb ham ataladi) yetib keldik. To‘rt tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan”.<sup>3</sup> Bu Issiqko‘l ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Biroq, Shyuan Zangning unga qanday kelganligi haqida turli xil fikrlar mavjud. Ba‘zilar u Muzartning Bedel dovoni (4284 m) orqali o‘tganiga ishonishadi. XXR ning zamonaviy olimi Chjou Lyankuan o‘zining “Buyuk Tan davrining G‘arbiy hududi to‘g‘risidagi eslatmalarga oid tarixiy-geografik tadqiqotlar tavsifi” fundamental asarida ushbu fikrlarning barchasini keltirib, ularning hech biriga qo‘shilmagan va Shyuan Zang boshqa dovon - Qoraqir orqali va undan keyin Issiqko‘lning sharqiy qirg‘og‘idagi hozirgi Tup qishlog‘iga o‘tganligini isbotlashga harakat qildi.

*Birinchidan, Issiqko‘lga olib boradigan bunday marshrut noma’lum.*

<sup>1</sup> Xanshu (漢書- Xan sulolasini tarixi ) Xan sulolasining miloddan avvalgi 206 – milodiy 25 yillardagi tarixi aks ettirilgan asar. Asar Xitoy tarixchisi Ban Byo tomonidan boshlanib uning o‘g‘li Ban Gu, keyinchalik esa qizi Ban Chjao tomonidan yozilgan bo‘lib, Xan sulolasiga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan.

<sup>2</sup> “Sin Tan shu”da shunday deyilgan: Balujidan 300 li g‘arbda. Shubhasiz, bunday ko‘rsatkich bitta iyeroglifning yo‘qolishi natijasidir, chunki agar Balujia poytaxti Aksu shahrida bo‘lsa, unda uning g‘arbiida hech qanday dovon yo‘q, 157 li yo‘l masofasi, taxminan 120 km.

<sup>3</sup> “Sin Tan shu”da Linshandan Datsingchigacha bo‘lgan 400 li yo‘l o‘tkazib yuborilgan/ko‘rsatilmagan. “Shiji” dan keyin Suyega boradigan 500 li masofalik yo‘l ko‘rsatiladi (221/1, 6233-bet).

*Ikkinchidan*, nima uchun Shyuan Zang yo‘lni bitta pastki dovondan emas, balki, ikkita, hattoki juda baland bo‘lgan yo‘llarni tanlagani, ikkinchi yo‘lni esa belgilamagan.

*Uchinchidan*, nega u Hindistonga bo‘lgan olis safarni oson bo‘lmasligini oldindan bilib, asrlar davomida bosib o‘tilgan yo‘lni emas, balki uzoq va mashaqqatli yo‘lni tanlagan? Negaki, Muzartdan (3564 m) balandroq bo‘lgan (4284 m) Bedel dovonigacha hozirgi Oqsuvdan 200 km kartografik masofa bo‘lib, bu Lingshangacha bo‘lgan qadimgi yo‘l masofasidan ham ko‘proqdir.<sup>1</sup>

Suye shahrida turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar yashaganligi sababli, u katta karvon yo‘lida joylashgani aniqlangan. Ammo Shyuan Zang ko‘rsatgan masofaga asosan uni Issiqko‘ldan uzoqroq joyda izlash noto‘g‘ri bo‘ladi, bu ko‘rsatmalar faqat ko‘l yaqinidagi Chu daryosigacha bo‘lgan masofaga to‘g‘ri keladi. Keyinchalik sayohatnomada biz shuni o‘qishimiz mumkin: “Suye shahridan g‘arbda 400 li dan keyin ular Mingbuluoqqa yetib kelishdi. Mingbuluoqning janubiy tomonida qorli tog‘lar, qolgan uch tomonida tekislik bor. Daryolar yerni sug‘oradi...”

Qирг‘из тизмасининг shimoliy etaklarida Baytiq tizmalararo pastligi joylashgan, zamonaviy yo‘riqnomada aytlishicha, “siz o‘zingizni o‘zga tabiat qo‘ynida ekanday his qilasiz”. Bu yerda yoz va qish ancha mo‘tadil, havo toza va shaffofdir”. Mingbuloqdan 73-78 km g‘arbda, Shyuan Zang yozganidek, Dalosi shahri joylashgan bo‘lib, unda “barcha davlatlarning savdogarlari va chet elliklar birgalikda yashagan”. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Dalosi katta karvon yo‘lida joylashgan. Dalosidan 200 li/105 km janubi-g‘arbda, Shyuan Zang ma’lumotlariga ko‘ra, Bayshuychen joylashgan. Yo‘lning sharqida Qирг‘из тизмасидан oqib o‘tuvchi Chu daryosining irmog‘i va Oqsuv daryosi (turkcha “oq suv”) bo‘lgan, ular bo‘ylab ikkita aholi punkti joylashgan. Demak, Bayshuychen shahri shu daryoga yaqin hududda (Talas shahrining janubi-g‘arbidagi boshqa daryo yaqinida emas) joylashgan deb ishonishga asos bor. Shyuan Zang tomonidan ko‘rsatilgan Dalosigacha bo‘lgan masofa Talas yaqinidagi g‘arbiy tomonda joylashgan Oq daryoni (Aksu, Baysuy) izlashga imkon bermaydi.

Bayshuychen shahridan 200 li/105 km janubi-g‘arbda, Shyuan Zang ma’lumotlariga ko‘ra, Gongyu shahri, janubda esa 50 li/26 km masofada Nuchijian joylashgan.<sup>2</sup> Sulola tarixida bu joylar haqida boshqa ma’lumotlar keltirilmagan.

Ammo Nuchijyandan g‘arbda 220 li / 115 km masofada ko‘rsatilgan Chjeshi davlati “Bey shi” va “Sin Tan shu” sulolalari tarixida Shi (tosh) nomi bilan ma’lum bo‘lib, o‘sha davr voqealari tavsifida qayd etilgan bo‘lib alohida e’tiborga loyiq.

Uning Toshkentdagи joylashuvi umumiy tarzda qabul qilingan. Xitoycha Shi-gou (Tosh davlat), Toshkent ya’ni Tosh shahar nomining qadimgi arab va qadimiy turkiy tillar bilan ham, Toshkent shahrining hozirgi nomi – Shosh, Choch bilan ham mos kelishiga asoslanadi.

Shyuan Zang sayohatnomasida va “Sin Tan shu” da Chjeshidan (Shi) 1000 li janubi-sharqda joylashgan Farg‘onadagi qadimgi Davan bilan tenglashtirilgan Buxan davlati ko‘rsatilgan. Shi davlatining birinchi tavsifi “Bei Shi” da paydo bo‘lgan, u yerda ham Yueshashui daryosi bilan bog‘langan. Bu Ouyang Syu Shining ikkinchi tavsifida “Bei Shi” materiallariga tayanganligini ko‘rsatadi. “Bei shi” da Buxan (Farg‘ona) davlati Shining janubidan 600 li masofada ko‘rsatilgan va Buxan tavsifida Shi undan 500 li shimoli-g‘arbda, Buxanning o‘zi esa Shule shahridan 1000 li g‘arbda va Suduyshan mamlakatidan 500 li sharqda va Guachjoudan (Dunhuan) 5500 li g‘arb

<sup>1</sup> Боровкова. Л.А. Запад Центральной Азии во II в. до н.э. VII в.н.э. – М.:Наука, 1989. – С.132

<sup>2</sup> Muallif bu asarida yevropalik taddiqotchilarga ishora qilib, ularning nomini aytmay, Bayshuychenni aynan shu tarzda mahalliylashtiradi.

## SHARQ MASJALI

tomonda joylashganligi aytildi. Shule va Guachjoudan Buxangacha bo‘lgan masofalar uning poytaxti hali ham O‘sh shahri hududida joylashganligini ko‘rsatadi.

So‘ngra Shyuan Zang Sirdaryo, Samarqand va Buxoroga keladi. Shyuan Zangni Buxorodan janub tomonga yurib, ikki tomoni baland qoyatosh oralig‘idagi yo‘ldan o‘tadi va bu joyni “Temenguan” ya‘ni “Temir darvoza” deb ataydi<sup>1</sup>.

Shu bilan birga, Shyuan Zang Temir darvozaga olib boradigan yo‘l juda baland, qiyin tog‘lar bo‘ylab VII asrdagi yo‘l masofasining 300 li / 157 km ekanligini yozadi. Samarqanddan Bansuntog‘ tizmasidagi Derbent dovonigacha bo‘lgan yo‘l tog‘lardan o‘tmaydi, balki dengiz sathidan atigi 1000 metr balandlikda joylashgan tepalik hududdan o‘tadi. Boysuntog‘ tizmasining o‘zi esa maysa va archalar bilan qoplangan. Yo‘l ko‘plab daryo va soylarni kesib o‘tadi. Demak, bu yo‘lni suv va o‘t kam bo‘lgan baland va tik tog‘lar orasidagi yo‘l deb aytish mutlaqo noto‘g‘ri.

Shyuan Zang tasvirlagan Temir darvozaga olib boradigan yo‘lning geografik xususiyatlari bilan Samarqanddan Derbentgacha bo‘lgan yo‘nalish o‘rtasidagi tafovutni yaqqol ko‘rish mumkin. Tahsil qilingan ma‘lumotlarga ko‘ra, Samojian/Kangning egaligi hozirgi So‘g‘d viloyatida joylashganligi sababli, ikkinchi janubga ketadigan karvon yo‘li ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, u chindan ham ketma-ket joylashgan uchta baland tizma – Turkiston, Zarafshon va Hisorni kesib o‘tadi. Kamida 100 km uzunlikdagi yo‘l baland tog‘lardan o‘tadi, u yerda suv va o‘t kam. Temir darvozalardan janubda, Shyuan Zangning yuqoridagi tavsifiga ko‘ra, bir vaqtlar bu yerda mavjud bo‘lgan davlat hududida tashkil topgan 27 ta Tuxolo viloyatlari joylashgan. Shyuan Zang ularning barchasini karvon yo‘llari bo‘yicha ketma-ketlikda tavsiflab beradi. Temir darvozani tark etgandan so‘ng, u birinchi bo‘lib Fochuhe daryosining quyi oqimida joylashgan Dami shahrini ko‘rsatgan. Ammo, bu uning Tuxolo yerlarining umumiy tavsifida Fochuhe daryosi tuxolo yerlarining o‘rtasidan oqib o‘tgani haqida xabar berilgan, ammo keyin daryo birdan shimolga ko‘chib qolgan. Shunga o‘xshash faktlarni ko‘rishimiz mumkinki, qadimgi xitoyliklar o‘zları kesib o‘tgan yoki oddiygina ma‘lumot olgan daryo o‘zanlarining yo‘nalishini bilmay, ularni chalkashtirib, turli daryolarni bir xil nom bilan atashgan. Shunday qilib, Shyuan Zang bu yerdagi Surxondayoni o‘ziga ma‘lum bo‘lgan va Tuxolo hududining o‘rtasidan o‘tuvchi Fochuhe daryosi bilan adashtirgan.<sup>2</sup>

Shyuan Zang Balxga qadar bir necha davlatlardan o‘tib boradi. Balx orqali Hindiqush tog‘lariga yetib boradi. Hindiqush tog‘laridan so‘ng Kobulga yetib boradi. Sharq tomonga 600 li yurilganidan so‘ng, Shimoliy Hindistonga yetib boradi. Hindistonga yo‘lga chiqqan Shyuan Zang Markaziy Osiyo hududi orqali yurib, bu yerlardagi juda ko‘p davlarning joylashuvi, yashash shart-sharoitlari haqida qimmatli ma‘lumotlarni beradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qiladigan bo‘lsak, Shyuan Zangning sayohati va uning “Buyuk Tan sayohatnomasi” asarining o‘rganilishi Markaziy Osiyo tarixiga oid juda ko‘plab tarixiy va geografik ma‘lumotlarning yoritilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tan davriga oid boshqa manbalar Shyuan Zangning sayohati kabi geografik va toponomik ma‘lumotlarni aniq aks ettirmaydi. Quyidagi omillar sayohatnomaning o‘rganilish ahamiyatini oshiradi:

*Birinchidan*, Xitoyning ushbu mintaqasi davlatlari bilan xalqaro aloqalari tarixini haqiqiy o‘rganish faqat ularning joylashuvi tarixiy-geografik jihatdan aniqlangandan keyingina boshlanishi mumkin;

<sup>1</sup> Ходжаев А.. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Т., 2007. – Б.164

<sup>2</sup>Боровкова Л.А. Запад Центральной Азии во II в. до н.э. VII в.н.э. – М.:Наука, 1989. – С.145

## SHARQ MASHLALI

*Ikkinchidan*, sulolalar tarixida alohida davlatlarning tavsifi deyarli yo‘q. “Sin Tan shu” da Ouyan Syu ular haqidagi ma’lumotlarni qandaydir tarzda bog‘lashga harakat qiladi, ammo unda aniq tushunish deyarli qiyin. Jumladan, Hisor tizmasidan janubda joylashgan hududlarning siyosiy xaritasini esa faqat Shyuan Zangning sayohatnomasigina qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi.

*Uchinchidan*, Shyuan Zang sayohatnomasida o‘zi guvohi bo‘lgan voqeа-hodisalar va yurgan yo‘llarining marshrutini ifodalaydi. Xususan, Shitsin poytaxti haqidagi ma’lumotlarga e’tibor qaratamiz. Shyuan Zang shahar haqida quyidagilarni yozadi: Bu yerda ko‘p miqdorda no‘xat va bug‘doy yetishtiriladi; boshqa don mahsulotlari esa kam bo‘lgan. Vanch vodiysi qadimdan Pomirning don ombori sifatida tanilgan, shuning uchun, aftidan, bug‘doy yetishtirish bu yerda qadimdan boshlangan. Shu sababli, “Sin Tan Shu” (Tan sulolasining yangi tarixi) dagi odamlar bu yerda faqat savdogarlarni talon-taroj qilish bilan shug‘ullanadilar, degan xabar haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi.

Sayohatnomada Tan sulolasiga oid “Sin Tan shu” kabi manbalar bilan qiyoslanganda o‘zining ustunlik jihatlari bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyodagi ba’zi davlatlarning joylashuv o‘rni, joy nomlarining aniq qayd etilishi kabi xususiyatlari bilan sayohatnomada mintaqamizning o‘rtalarda tarixini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ходжаев А.Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Т., 2007. – 280 б.
2. Байпаков К.М. Западно-тюркский и Тюргешский каганати: тюрки и согдийці, степь и город / К.М.Байпаков // Известия НАН РК. Серия общественных наук. – 2009. – С.105-146
3. Боровкова Л.А. Запад Центральной Азии во II в. до н.э. VII в.н.э. – М.:Наука, 1989. – 175 с.
- 4.Гафуров Б.Г..Таджики: древнейшая, древняя и средневековая история. 2-е изд. – М., 1972. – 425 с.



### NAVOIYXONLIK VA NAVOIY IJODIY AN‘ANALARINING QO‘QON ADABIY MUHITI RIVOJIDAGI O‘RNI

**Saydganiyeva Gulbahor**  
*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi*

*Annotatsiya* Maqolada XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitiga oid manbalar asosidagi tahlillar berilgan. Shu davrdagi an‘analarning bugungi kungacha davom etib kelayotganligi masalasi yoritilgan. Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos bir qirrasi bo‘lgan navoiyxonlik kechalari va navoiy an‘analarining bardavomligiga doir mulohazalar bayon qilingan. Mumtoz adabiyot ang‘analariga ergashib yozilgan Qo‘qon shoirlarining muxammaslarini tadqiq etishda qiyosiy-tipologik metoddan foydalanildi. Navoiyxonlik Qo‘qon adabiy muhitini tadqiq qilishda o‘ziga xos adabiy va madaniy-ma‘rifiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin ekanligi aniqlandi. Shuningdek, Qo‘qon adabiy muhitida mumtoz adabiyot an‘analarining barhayotligi va bardavomligi, Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos jihatini belgilovchi xususiyatlardan biriga aylanganligi ilmiy xulosa sifatida berildi. Ushbu adabiy muhitning o‘zbek adabiyoti rivojidagi o‘rni ko‘rsatildi.